

ITLARDA NAYSIMON SUYAKLAR SINGANDA TASHQI FIKSATORLARDAN FOYDALANISH

B. D. Narziyev

Ilmiy rahbar, veterinariya fanlari nomzodi,

J. T. Tashmuradov

Tayanch Doktorant,

L. A. Karimova

Assistant KLD Sam DMU

Annotatsiya:

В данной статье представлены научные исследования по технике установки аппаратов внешней фиксации Елизарова и лечению методом Анникова переломов трубчатых костей у собак.

Kalit soʻzlar: Elizarov aparatori, Elizarov va Kishner spitsasi, tashqi fiksator, konservativ, Ostiyo-sintez, transosseous, Anninkov .

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi kunda itlar orasida suyak sinshlar juda keng tarqalgan, chunki aholi oʻrtasida turli zootga mansub itlarga boʻlgan qiziqish kundan kunga ortib bormoqda va ularni turli maqsadlarda ishlatmoqda. Kimlardir qiziqish uchun yana kimlar ov mavsimida ishlatsa bazi koʻzi ojiz insonlarga yolini togʻri topishi uchun undan koʻmakdosh sifatida, xarbiy soxada esa ulardan norkotik moddalar qurol yaroq va portlovchi moddalarni tez va oson topish maqsadida foydalanilmoqda. Afsuski, uy hayvonlari koʻpincha balandlikdan yiqilishi, tashqi tasurotlardan zarbalar (avtotransport, begona jisimlar), oʻyinlar, mashgʻulotlar yoki toʻqnashuvlar, natijasida oldingi va keying oyoqlarning suyaklarini sinishi uchramoqda. Singan suyaklarni davolash maxsadida qayta repozitsiy qilish veterinarlardan katta maxorat talab qilinadi. Yosh hayvonlarda sinishlarni davolashda oʻsish plitalarini ximoya qilish va ish xolatiga erta qaytishini taminlash juda muximdir. Oxirgi yillarda veterinariya amaliyoti va ilmiy tadqiqotlarda naysimon suyaklarni sinishlarni davolashda tashqi fiksatorlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etmoqda, chunki suyagi singan oyoqni tayanch va xarakat qilish funksiyasi erta tiklanadi. Bundan mavzuni dolzarbligi va ilmiy – amaliy ahamiyati namoyon boʻladi.

Mavzuning oʻrganilganlik darajasi. Itlar orasida uchraydigan naysimon suyaklar ochiq va yopiq sinishlarini davolash konservativ immobilizatsiya usuli va xirurgik usul bilan olib boriladi, yangi intramedulyar va plastinali osteosintez usullari qulanilmoqda. Ohirgi yillarda naysimon suyaklarni yopiq va ochiq sinishlarni tashqi fiksatorlar yordamida davolash borasida

veterinariya soxasida O'zbekistonda ilk bor amaliy va ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Itlarni naysimon suyak sinishlarini davolashda tashqi fiksatorlar o'rnatish uchun Elizarov aparati itlarni kata kichikligiga qarab metaldan yasaladi va Elizarov metodikasi bo'yicha asosan mahsus zanglamaydigan materialdan tayorlangan spisalardan foydalaniladi. Ostiyosintez paytida sinishlarni tashqi transosseous fiksatsiya qilish usulini taklif qilindi, uning mohiyati teri va pastki yumshoq to'qimalar orqali metal simlarni yengil burchak ostida suyak bo'laklariga kiritishdan iborat. [1;2;3]

Itlarda naysimon suyaklar it zotiga qarab turli o'lchamlarda bo'ladi va naysimon suyak sinishlarini davolashda xirurgik usullardan foydalaniladigan bo'lsa naysimon suyaklarning bitish jarayonini taminlash maqsadida tashqi fiksatorlardan keng foydalanish mumkin masalan: Elizarov aparatidan. Aparatni o'rnatishda asosan itlarning naysimon suyaklarining sinish darajasiga, sinish joyiga va o'lchamlariga qarab, suyak diametrini xisobga olgan xolda turli diametr o'lchamdagi xalqalari bor Elizarov aparatlarini o'rnatish mumkin. O'zbekiston sharoitida ilk bor veterinariya amaliyotida va ilmiy tatqiqot soxasida izlanishlar olib borish uchun Elizarov aparatini itlarni naysimon suyklari singanda o'rnatishni yolg'a qoyishni maqsad qilib quyganmiz. Bunda tashqari tashqi fiksatorlarni itlar organizmiga tasir mexanizmini, unda kechadigan bitish jarayonlarini urganish katta ilmiy amali axamiyotga ega. Bu aparatning qulaylik tamonlari shundaki bu bilan suyaklarni o'stirish, tug'ma kalta oyoqlardagi suyaklar bo'lsa uni o'stirish, notog'ri bitgan bo'lsa to'g'irlash mumkin. Apparatning avzalik tamonlari shundaki uni o'rnatilgandan so'ng singan oyoqlarni tez bosib oyoqqa turish imkonini beradi, ochiq sinishlarda jaroxatga ishlov berish imkonini oshadi. Singan suyaklarni bir-biriga mos qilib o'z joyiga keltirish repozitsiy uchun suyaklarni burg'ulab Elizarov yoki Keschner sipitsalari o'tqaziladi. Suyak diametri katta yoki kichik o'lchamiga qarab sipitsalar suyak diametrining 20% dan oshmasligi kerak sipitsalar orasidagi burchak 90 darajada yoki 120 ga 60 daraja bo'lishi mumkin, agar xalqalarning teshiklarini soat raqamlari kabi tasavur qilsak unda sipitsalarni, 3-dan 9-ga va 12-dan 6-ga yonaltirib burchaklarni belgilash mumkin. Xalqalar orasidagi masofa 12 sm dan oshmaslik kerak. Singan suyakga o'rnatiladigan xalqalar orasidagi masofa qanchalik uzoqlashsa singan suyaklarning bir biridan siljishi ortadi shu sababdan orasidagi masofaning 12 sm dan uzoqlashtirmaslik kerak. Suyakni burg'ulaganda yumshoq toqima va suyakning kuymasligi xisobga olinadi, burg'ulash moslamasining tezligi daqiqasiga 850-1300 martagacha bulishi mumkin. Itlarda naysimon suyak sinishlariga eng ko'p o'rnatiladigan xalqalar 60-80-100 mm diametrli bo'ladi va mayda zotli itlarga maydaroq 30-40 mm diametrli yoki sipitsaning o'zi bilan sovuq svarka yordamida qotirish yoki sipitsalar ikkala sterjingga qisilib mahkamlanadi. Sinish son soxasida bo'lsa lateral tamoniga bir sterjingga vint bilan maxkamlanuvchi tashqi fiksatorlarni o'rnatish mumkin. Suyak sinishlarini davolashda tashqi fiksatorlarning og'irligi xam aloxida axamiyat kasb etadi, iloji boricha ularni yengilroq materiallardan tayorlash kerak. Shunda ularning bitish jarayoni og'ir metaldan tayorlangan tashqi fiksatorlarga qaraganda 5-6 kun avvalroq bitadi. [1;2;4;7;8]

Ostiyofiksatorlar suyklari singan oyoqlarga quyilgandan keyin tugri repozixiy bulish xisobiga suyak to'qimasi (qadoq) xosil bo'ladi va bu suyaklarda qayta sinishining oldini oladi va operatsiy tugatilgandan keyin bu jarayni faollashtirish maxsadida davolash olib boriladi. [5;6] Elizarov apparatining xalqalarini zanglamaydigan pollatdan, titandan va karbon tolalaridan yasatish mumkin xalqalardagi teshiklardan spitsalar turli darajadagi tekisliklarda yotishi mumkin. Xalqalarni o'rnatganda shuni xisobga olish kerakki teri bilan xalqa orasidagi masofa 1,5 sm dan kam bo'lmasligi kerak. Spitsalarning teri ichiga kiritilgan joyini tozalab turish kerak bo'ladi chunki bunda tashqi muxitdan turi infeksiyalar kirishi mumkin, buning oldini olish maqsadida, spitsalarga spirt bilan namlangan bint o'ralib siljimasligi uchun rezina qalpoqcha maxkamlab qo'yiladi, bint kuniga ikki maxal spirtlanib tozalanib namlab turiladi. Tashqi mahkamlash usullari Elizarov apparati ko'pincha hayvonlarning murakkab sinishi uchun ishlatiladi. Suyak bo'laklari, suyak va to'qimalarga shikast yetkazmaydigan halqalar va metal spitsalar yordamida o'rnatiladi. Kerak bo'lganda suyak bo'laklarini siljitish qobiliyatini taminlaydi. Singan suyaklarning barqarorligi va yumshoq toqimalarning yaxlitligi o'rtasidagi muvozanat suyak sinishlarni davolash natijasi uchun zarur sharoitdir, anatomik xolatga qayta tiklanishga erishish uchun barcha urinishlarni bajarish kerak va bu mofoqiyatli natija uchun zarur sharoiti bulib hisoblanadi. Elizarov apparatining modullari bilan o'rnatilgan tashqi fiksatsiya singan suyaklarning bitish jarayonini taminlash uchun qulay sharoit yaratadi. [7;9;10]

2-rasm: Naysimon suyak sinishlarida tashqi fiksatorlarni o'rnatish




A-Itlarga eng ko'p quyiladigan Elizarov apparatlari
B-Itida kata boldir suyagining distal qismidan sinishi rentgen rasimi
S-D- Elizarov apparatining o'rnatgandan keying roentgen rasimlari.

Naysimon suyaklarning diyofiz qismidan sinadigan bo'lsa ularga xalqalar qo'yish osonroq va qiyinchiliksiz o'rnatish mumkin. Agar epifiz qismidan sinadigan bo'lsa ularga xalqa qo'yish ishning tez va samarali bo'lishini taminlaydi ayniqsa bu katta va kichik boldir suyagining pastki qismi va tovon suyagining yuqorigi qismidan singan bo'lsa xalqalar yaxshi samara beradi sinish darajasiga qarab spitsalar to'rtta beshta yoki oltita bazan sakkista xam o'rnatish mumkin suyak diyametriga qarab Kishner yoki Elizarov spitsalarini o'rnatish mumkin.

3-rasm: Ikki tamonlama bir tekislikda joylashuvchi spitsali tashqi fiksatorlar,

A-bo'lt va gaykalar yordamida mahkamlanuvchi tashqi fiksator.

B-sovuq svarkalar yordamida qotiriluvchi tashqi fiksator.



3-rasm: Itda oldingi o'ng oyog'ida bilak tirsak suyaklarining sinishida tashqi fiksatorlar o'rnatilgan.

Bu usulda xam ikki tamonda joylashgan sterjinga Elizarov spitsalari orqali maxkamlangan yengil va qulay ammo mayda bo'laklarga bo'lingan va bo'g'imga yaqin joylardan suyaklari singan bo'lsa qo'yilmaydi, lekin uzun naysimon suyaklarning diyafiz qismidan sinishlarida yaxshi natija beradi. Kishner spitsalari bilan konbinatsiyalangan ostiyofiksatsiyaning invaziv usullari sinishlarni davolashning zamonaviy konsepsiyalariga mos keladi va maydalangan sinishlarni davolashda ijobiy natijaga erishish imkonini beradi. Ushbu usulning iqtisodiy afzalliklari sarf xarajatlari va asboblarning arzonligi ularning minemal xarajatlar bilan klinik amaliyotga joriy etish imkonini beradi.[11]

Xulosa.

1. Tashqi fiksatorlar bilan davolash boshqa usullarga qaraganda arzonligi, bitish jarayoning tezligi bilan farq qiladi;
2. Singan suyakga o'rnatilgan tashqi fiksator suyakni juda mustaxkam qilib ushlab turadi va singan suyakda suyak qadog'i xosil bo'lish tezlashadi;
3. Singan suyk bitgandan keyin ornatilgan tashqi fiksatorni olib tashlash qiyinchlik tugdirmaydi va narkoz berishni talab qilinmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Беспалов В. А. Диагностика и лечение переломов костей у домашних животных, Материалы студенческой научной конференции Института ветеринарной медицины Троицк-2019. С.28-32
2. S. O'zsoy, K.Altunatmaz Treatment of extremity fractures in dogs using external fixators with closed reduction and limited open approach Surgery Department, Faculty of Veterinary Medicine, Istanbul University, Istanbul, Turkey Vet. Med. – Czech, 48, 2003 (5): 133–14

3. В.В. Анников, А.В. Красников, Д.М. Коротова. Болезни собак и кошек: методические указания по выполнению лабораторных работ для специальности «Саратовский ГАУ».- Саратов, 2017, - 38с.
4. С.А.Ягников.Пасобие к лекционному курсу по ветеринарной хирургии. Вне очаговый остеосинтез Москва - 2003. С.14-19. Деревянченко Владимир Владимирович
5. Клинико-Морфологическое обоснование эффективности применения в травматологии остеофиксаторов из нано модифицированного диоксида титана Диссертация Саратов-2015. С. 104-105.
6. M. Dvorak, A. Necas, J. Zatloukal: Complications of Long Bone Fracture Healing in Dogs: Abstract Functional and Radiological Criteria for Their Assessment. Acta Vet. Brno 2000, 69: 107–114.
7. Bakhtiyor Doliyevich Narziyev Supervisor, Candidate of Veterinary Sciences, Jurabek Tursinmurodovich Tashmuradov Basic Doctoral Student. Samarkand Institute of Veterinary Medicine. Treatment of tubular bonefractures in dogs with external fixatives Galaxy international interdisciplinary research journal (giirj) issn (E): 2347-6915 Vol. 10, Issue 3, Mar. (2022)477
8. Пичугин Юрий Вячеславович, Ермолаев Валерий Аркадьевич, Марьин Евгений Михайлович, Опыт лечения переломов трубчатых костей у собак при совместном использовании биокомпозита и облегченной конструкции аппарата внешней фиксации, Вестник 2019.03 с.131-136
9. А.В.Акимов Ю.И.Сидорова Канюлированные имплантанты при лечении собак с внутрисуставными переломами. Российский ветеринарный журнал 2014.05. с 10-14.
10. Ashwani Kumar, Beenish Qureshi and Vandana Sangwan Biological Osteosynthesis in Veterinary Practice: A Review International Journal of Livestock Research, Vol. 10 (10) Oct 2020 peg. 25-30
11. Р.А. Бирюков, С.А. Барков. Малоинвазивные методы комбинированного остеосинтеза спицами Киршнера при лечении оскольчатых переломов плечевой и бедренной кости у кошек. Российский ветеринарный журнал. 2019. -№ 9. С. 18–22.